



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA  
VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI**

CUSTOMS COMMITTEE UNDER THE MINISTRY OF ECONOMY AND FINANCE  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 3. tel. (55) 502-76-00, www.bojxona.uz, customs@exat.uz, info@customs.uz

2026-yil 1-iyul

03-05/15-8037-son

**O‘zbekiston texnik jihatdan  
tartibga solish agentligi**

*Ma’lumot uchun:* **Bojxona brokerlari uyushmasi**

Joriy yilning 15-iyun kuni Bojxona qo‘mitasida bojxona brokerlari uyushmasi a’zolari hamda bojxona brokerlari vakillari bilan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida yuzaga kelayotgan muammolar, ularning yechimlari, shuningdek bu borada kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar to‘g‘risida ochiq muloqot o‘tkazildi.

Xususan, ochiq muloqotda Bojxona brokerlari uyushmasi raisi o‘rinbosari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PQ-122-son qaroriga asosan tovarlarni olib kirish, olib chiqish va tranzit olib o‘tish bo‘yicha barcha sertifikat, xulosa va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar faqat “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali rasmiylashtirilishi belgilanganligi, biroq bugungi kunda “Transport vositasi (shassi) turini tasdiqlash” hujjati “Yagona darcha” bojxona axborot tizimidan amalga oshirilmayotganligi sababli ortiqcha vaqt va ma’muriy yuklamani yuzaga kelayotganligi bildirildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, murojaatda keltirilgan masalani vakolatingiz doirasida ko‘rib chiqib, murojaat muallifiga javob xati taqdim etish hamda masalani ijobiy hal etilishida amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

**Rais o‘rinbosari**



**N. Musamuxamedov**